

XORAZMDA ZARGARLIK SAN'ATI TARIXI

Yaqubova Shahlo Ruslanovna

“Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi “Hukumdor va shoir” bo‘limi ilmiy xodimi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazm zargarlik san'ati tarixiga oid ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilishga harakat qilindi. Zargarlik buyumlarining ishlatilishiga qarab turlari va o'ziga xos jihatlari tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: Yuzik, isirg'a, davoduzi, feruza, toj, igna, marvarid, yoqut, sadaf.

HISTORY OF THE ART OF JEWELRY IN KHOREZM

ABSTRACT

In this article, an attempt was made to study and analyze information on the history of Khorezm jewelry art. Types and specific aspects of jewelry are described depending on their use.

Keywords: Yuzik, isirg'a, davoduzi, feruza, toj, igna, marvarid, yoqut, sadaf.

O'zbek zargarligi juda qadimiy tarixga ega. Unga ibtidoiy jamoa tuzumi davrida asos solingan. Arxeologik manbalardan ma'lumki zargarlik san'ati juda qadimiy san'at bo'lgan. Eramizgacha bo'lgan I asrdan boshlab eramizning VIII asrigacha Ayritom, Afrosiyob, Dalvarzintepa, Xolchayon, Bolaliktepada chiroyli haykallar, devor bezaklari orqali zargarlik san'ati rivojlanganligini ko'rish mumkin.

Arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlarga ko'ra, Daryaliqko'l soyi hududidagi aholi turar – joylari xilma – xil vazifada ishlatiladiga munchoqlar olingan. Y.A.Rapoport Shohsanamdan silindr shaklida munchoq va disk shaklida taqinchoqlar olishga muvaffaq bo'lgan. Gurganch shahrida Toshqal'a uy xonalaridan rangi xilma-xil, vazifasi bir-birini takrorlamaydigan munchoqlar olishgan.

Har bir zargarlik markazi o'zining shakl va bezaklar bilan ajralib turuvchi, o'sha joy uchun xos bo'lgan umumiy xususiyatlarga ega zeb – ziynat buyumlarni ishlab chiqargan boshqa hunarmandchilik singari zargarlar ham oqsoqol – Qalandar tomonidan nazorat qilingan. Zargarlik kasbi og'il farzandga meros bo'lgan, ota kasbidan yuz o'girish og'il uchun ko'rnamalik, shakkoklik sanalgan.

Zargarlarga ko'pincha ularning xotinlar va qizlar ko'maklashgan. Ba'zi ustalar turli xil ziynat buyumlari yasaganlar, ba'zilar faqat bir xildagi ziynat buyumlarini yasashga o'rganganlar.

IX - XIII asr boshlarida zargarlik san'atiga islom dini ta'sirini hali hayvonlar va tabiat tasvirini saqlab qolgan «islamiy» girixli naqshlarning ko'payib borishi tasdiqlaydi. Islom dini kirib kelishining dastlabki davrlarida bu yerda shu paytgacha hukm surib kelgan jonli mahluqot tasviri bilan bezash o'z o'rnini saqlab qolgan. Shuningdek, aholi san'atining ildizida shu qadar aniqlik, erkinlik va holislik turadiki, uni yangi diniy qarashlarga butunlay bo'ysundirishning iloji yo'q edi.

Mavjudotlarni ifoda etish badiiy uslubi o'zgarib, ular arabiy yozuvli naqshlar bilan birikkan bo'lsada, haligacha an'anaviyligicha qolmoqda edi. O'sha san'at turlari sifatida bizga tumorlar, kamarlarning ayrim qismlari yetib kelgan bo'lib, ular va kumushdan, hayvon, qush, baliq, afsonaviy mahluq, ilon boshiga o'xshab yasalgan bilaguzuklar shaklida yasalgan. Barchalariga har xil yomonliklardan saqlovchi, yaxshilikga yetaklovchi, savob, baxt–saodat keltiruvchi kabi xususiyatlarga ega degan qarashlar mavjud bo'lgan. O'sha davr uchun arabiy yozuvli naqshlardan foydalanish yangilik bo'lib, ular bilan tirik tabiatning tasvirlarini bezaganlar. Husnixatlar ham ezgulik ma'nosini bildirib, kuch – qudrat, sahiylik, davlat, tinchlik, baxt, shon-shuhrat, sog'lik va boshqalarni anglatgan. Bezatilgan tasvirlarning va yozuvlarning muqaddasligi bir – birini inkor qilish u yoqda tursin aksincha, turli diniy tasavvurlarning maxsuli bo'lishiga qaramay, bir – birini to'ldiradi.

X – XII asrlarga ta'luqli zargarlik namunasi bo'lgan ilon shaklidagi burama kumush bilaguzuklarning shakli ham jonli mahluqot ramzi bilan bog'liqdir. Qadim zamonlardan oq Sharqda ilonga yaxshilik belgisi deb qarashgan. U xonadon, boylik, yer osti ma'danlari, qabrlarning posboni degan qarash mavjud bo'lgan.

XVIII–XX asr boshlarida Xorazmda zargarlik yuksak darajada taraqqiy etgan. Xiva, Hazorasp va Urganch shaharlarida zargarlar mahalla-mahalla bo'lib yashaganlar. Hozirda Xivada Zargarlar nomli mahalla, Urganch tumanida Zargarlar nomli qishloq mavjud. XIX asr 60 yillarida 12 nafar zargar bo'lsa, XX asr boshlarida ularning soni 60 ga yetgan.

XIX va XX asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklari o'rtasida badiiy hunarmandchilik rivojlandi, shular qatori zargarlik san'ati ham tez suratlar bilan rivojlandi. Xiva, Buxoro, Samarqand, Qo'qon shaharlari XIX asr zargarlik san'atining eng yirik markazlari hisoblangan. Tarixiy manbalarga qaraganda Xivada 1860-yilda XIX asrning oxiri va XX asrning boshida 60 ta zargarlik do'konlari faoliyat ko'rsatgan.

Ayollar taqinchoqlari juda xilma-xil va bir-biriga o'xshamaydi hamda har birining o'z xususiyatlari mavjud. Hududlarda ham farq katta bo'lib, Xorazm zargarligi o'zining takrorlanmasligi, badiiy go'zalligi va originalligi bilan ajralib turadi. Xorazm zargarlik bezak buyumlarini ishlatilishiga qarab qo'l, bosh, bo'yin, ko'krak va bel bezaklari guruhlariga ajratdik. Qo'l taqinchoqlariga yuzik (barmoq) va bilakuzuk (bilak, ayrim hollarda oyoqqa ham taqilgan) kiradi. Yuzik (uzuk) barmoqqa

taqiladigan aylana shakldagi bezak buyum. Yuziklarni ayollar ham, erkaklar ham taqishgan. Qaysi barmog‘iga taqishhaga qarab o‘ziga xos ma‘nolari mavjud. Yuziklar mis, bronza, kumush va tilladan ishlangan. Yuziklar ishlanishiga qarab oddiy va qoshli turlariga ajratiladi. Oddiy yuzik bu metalni aylana shaklda yasashdan iborat, odatda u bezaksiz, ayrim hollarda naqshli bo‘ladi. Qoshli yuzikni asosan ayollar taqishadi. Aylana shakldagi yuzik tepa qismiga qoshni ushlab turish uchun taglik o‘rnatiladi va shunga qosh mustahkamlanadi. Qosh turli qimmatbaho toshlardan bo‘lishi mumkin. Asosan qosh uchun sadaf, firuza, marjon va boshqalar ishlatiladi. Bilakuzuk bilakka taqiladigan bezak. Bilakuzuk ham mis, jez, kumush va tilladan yasaladi. Yasalishiga ko‘ra bilakuzuk 2 xil bo‘ladi. Xorazmda qadimdan quyma bilakuzuklar mashhur bo‘lgan.

Zargarlikda quyidagi metall, tosh va shishalar ishlatiladi va har biri o‘z xususiyatlariga ega: feruza, marvarid, zumrad, sadaf, aqiq, yoqut, dur, yantar, xalsedon, tillo, kumush, mis, jez, shisha va boshqalar. Zargarlikda har bir toshning o‘z xususiyati bo‘lib, nafaqat bezak buyum sifatida balki sog‘liq uchun, insoniyat ruhiyati uchun foydali hisoblanadi. Ayrim toshlarni xususiyatlarini ko‘rib o‘tamiz:

Marvarid – inson organizmini mustahkamlaydi, yurakdagi tushkunlik va iztirobni xaydaydi, ko‘z qobilyatini oshiradi, jinlardan saqlaydi, og‘izdagi qo‘lansa hidlarni yo‘qotadi, oshqozon va jigardagi toshlarni maydalaydi, shamollash, bavoasil va boshqalarni tuzatadi.

Feruza- qudratli tumor sifatida taqiladi, oshqozon va ko‘z kasalliklariga shifobaxsh ta’siri bor, ilon chaqqanda eng yaxshi davo hisoblanadi. Sadaf - ajin hamda sepkildan asraydi, zehnni ravshan qiladi, kishini bardam, tetik qilib ruxiyatini ko‘taradi. Xorazm zargarlik bezaklari o‘zining turlari ko‘pligi, hashamdor bezalishi, ishlanish texnologiyasi bo‘yicha boshqa hudulardan keskin farq qiladi. Biz har bir taqinchoq, uning vazifasi, xususiyatlari, ishlanishi va ustalariga to‘xtalishga harakat qildik. Uzuk, bilakuzuk, halqa, aravak, tumor kabi taqinchoqlar hamma davrlarda ham mavjud bo‘lgan. Xorazmda XX asr boshlarigacha tojduzi, duoduzi, manglayduzi, manotduzi, osmaduzi, kalitbog‘i, yarimtirnoq, butuntirnoq, bodomoy, kabi taqinchoqlar keng tarqalgan. Har bir buyum, undagi shakl, bezak ramziy ma‘noni ifodalagan. Masalan: kalitbog‘ida kalitlar farovonlik va boylik timsoli bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Abdullaev T., Faxretdinova D., Hakimov A. Ma‘danga bitilgan qo‘shiq. O‘zbekiston xalq san’ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.
2. Хасанов. Р. Амалий безак санъати методикаси. Тошкент: 2003.
3. Ahmedov B. A. O‘zbekiston tarixi manbalari. -Toshkent2001
4. Орипов Б.Н. Ўзбекистон санъати ва меъморчилиги тарихи. Наманган, 2007.